XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 8-sentabr VII-20-154-9-0-K/25 Sirdaryo viloyati

Viloyatda “Issiqlik ta’minoti” MChJ tomonidan issiqlik energiyasi va issiq suv etkazib berish xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga, 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son qonunining 13-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-son qaroriga, 2025-yil 31-iyuldagi Sirdaryo viloyati “Issiqlik ta’minoti” MChJning (bundan buyon matnda-MChJ deb yuritiladi) 19-sonli, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 1-iyuldagi 02-08/1082-sonli, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 31-iyuldagi 04/17/38-683-sonli xatlarini muhokama qilib, viloyatda issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. MChJning 2025-yil 31-iyuldagi 19-sonli, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 1-iyuldagi 02-08/1082-sonli va viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 31-iyuldagi 04/17/38-683-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. MChJ tomonidan ishlab chiqilgan hamda mutasaddi tashkilotlar tomonidan issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlari tariflarini tartibga solish yuzasidan taqdim etilgan xulosalar asosida 2024, 2025-yillar kuz-qish mavsumida isitish xizmatlari tarif narxlari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

4. MChJ rahbari (A.Islomov) markaziy qozonxonalar o‘rnatilgan tuman va shaharlarda aniq manzilli va muddatli reja-grafik asosida aholi o‘rtasida issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti uchun onlayn to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha turli shakldagi seminarlar tashkil etsin va natijasi yuzasidan joriy yilning yakuniga qadar Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga yozma axborot kiritsin.

5. Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov), “Yangi Sirdaryo” va “Новая Сырдаря” gazetalari tahririyati (B.Boymurodov)ga sohada amalga

oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Viloyat hokimligi, MChJ rahbari A.Islomovga:

O‘zbekiston Respublikasining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunining 21^{1}-moddasiga muvofiq viloyatda isitish xizmatlari tarif narxlarini qonun hujjatlari asosida ko‘rib chiqsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Bobobekov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi  AXMEDJANOVA POKIZA SHAVKATOVNA

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 8-sentabrdagi
VII-20-154-9-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2024, 2025-yillar kuz-qish mavsumida Sirdaryo viloyati “Issiqlik ta’minoti” MChJning isitish xizmatlari tarif narxlari*

T/r	Xizmat turi	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
Aholi uchun		
1	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	222 889,00
2.	1 oy uchun 1 m^2 isitiladigan maydonga	18 541,00 *(aholi uchun 5 981,00)*

***Izoh.** Aholi xonadonining 1 kvadrat metr yashash maydonini isitish uchun belgilangan tarif 18 541 so‘mning 5981 so‘m miqdori aholidan undiriladi, qolgan miqdori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-dekabrdagi PQ-4542-sonli qarorining 2-bandi b) punkti 2-xatboshiga asosan mahalliy budjet tomonidan qoplanadi.*